



**JADIDLAR ASARLARI ORQALI BOSHLANG'ICH SINF
O'QUVCHILARINING INSONIYLIK FAZILATLARINI
SHAKLLANTIRISH**

Pulatova Dilfuza Saidbayevna

Toshkent amaliy fanlar universiteti 4-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Jadid ma'rifatparvarlarining pedagogik merosi - boshlang'ich sinf o'quvchilarining insoniylik fazilatlarini shakllantirishdagi ahamiyati to'g'risida batafsил hikoya qilinadi.

Tayanch tushunchalar: jadid, ma'rifatparvarlar, ma'rifatparvarlik faoliyati, pedagogik meros, yangi usul maktabi, darslik, kutubxonalar

Hozirgi kunda mamlakatimiz hayotining barcha jabhalarida tub o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish borasida amalga oshirilayotgan ishlar ibratlidir. Aslida ham kelajakni shu yoshlar yaratadi.

Bugungi kunda xalq ta`limi xodimi oldida turgan eng muhim masala bu – yosh avlodni barkamol insonlar qilib tarbiyalashdir. Buning uchun salohiyatlari, zamonaviy ilm-fan sirlarini puxta o`zlashtirgan kadrlarga ehtiyoj sezilmoqda.

Boshlang`ich sinflarda ta`lim-tarbiyaning zamon talablari darajasida takomillashtirilishi, yoshlarning ma`naviy barkamol shaxslar bo`lib yetishida asosiy omillardan hisoblanadi. Buning uchun o`qituvchilarning ilmiy-pedagogik va metodik tayyorgarligini oshirish, darslarni ilmiy jihatdan takomillashtirish, ilg`or va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta`lim jarayoniga to`liq joriy qilish to`grisida ko`plab fikrlar bayon etilmoqda.

Ma`naviyat – uzlusiz da`vom etadigan jarayon. Ma`naviyat yuksak shaxslar yurtini tanitadi. Shaxsning esa uning ma`naviy qiyofasi tanitadi. Ma`naviyat tarbiyadan boshlanadi. Ta`lim-tarbiyasiz ma`naviyatning bo`lmasligi ko`pchilikka ayon haqiqatdir. Milliy pedagogikamizning asoschilaridan biri Abdulla Avloniyning



“Tarbiya biz yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir!”, - degan so’zlari fikrimizga dalil bo’ladi.

Maktab yoshidagi bolaning ma’naviyatini, tafakkurini shakllantirish bu doimiy tizimlilik, uzviylikni, davomiylikni talab etadi. Bu vazifalarni amalgalashirishda buyuk mutafakkir, davlat arbobi Jadidlar yaratgan merosidan foydalanishni davr taqozo qilmoqda.

Bizga ayonki, XX asrning boshlariga kelganda Turkistonda erk g‘oyasi, ozodlik uchun kurash jiddiy tus oldi. Chor Rossiyasining sitam, jabr-zulmi, xalq boshiga solgan adoqsiz zo‘ravonliklari xalqning sabr kosasining to‘lib-toshishiga olib keldi. Xalq orasidan chorizm siyosatining asl mohiyatini teran anglab yyetgan
ma’rifatli kishilar bu zulmga qarshi kurash olib borish uchun maydonga chiqdilar.

“Jadid” atamasining o‘zi atama sifatida aynan XIX asr oxirida ilk bor Turkiston ziyolilar hayotiga kirib keldi. “Jadid” atamasi (“jadid” – “yangi” demakdir). Turkistonga B.Qosimov fikriga ko‘ra, 1884-yil birinchi boriste’molga kiritilgan va “Tarjumon” gazetasi orqali Sharqu G‘arbning juda ko‘p o‘lkalarida yoyila boshlagan bo‘lsa-da, bizga 90-yillarda kirib keldi. “Jadid” atamasi va jadidchilik harakati esa “jadidlar otasi” deya nom olgan Ismoil Gaspirali nomi bilan bog‘liqdir. I.Gaspirali haqida uning “Hayot va mamot masalasi” asari orqali ko‘proq ma’lumot olishimiz mumkin. Shu asarda keltirilgan ta’rifga ko‘ra, “uchinchchi muallim” I.Gaspirali jadid ma’rifatparvarlaridan biri M.Behbudiy so’zlari bilan aytganda, “Rusiyadagi butun turk-tatar xalqlarini juda oz tarixiy muddatda xayr-xo’shlik bilan bir milliy oilaga birlashtirmoqqa noil bo‘ldi”. Kitobda yozilganidek, I.Gaspirali “Sharq xalqlari ma’naviy hayotida, xususan, maktabmaorifida chinakam inqilob yasagan, “usuli savtiya”ni boshlab berdi.

Boshlang’ich sinf o’quvchilaridagi ma’naviy ehtiyoj, talab, qiziqishni qondirish asosida milliy-ma’naviy merosni o’rgatishning muhim usullaridan biri dars jarayonida ilmiy manbaalarning maxsus tahlilini uyushtirishdir. Boshlang’ich sinf



o'quvchisi turli usullar vositasida mavzu mohiyatida olg'a surilgan asosiy g'oya negizida qator o'zbek xalqining milliy-ma'naviy merosi dinamikasi bilan tanishish jarayonida, ularda xalqimiz qadimdan ulug'lab kelayotgan insoniy fazilatlar shakllanib boradi. Masalan, 4-sinf o'qish darslarida berilgan ertaklar "Qanoat va ochko'zlik, insonparvarlik va saxovat" mavzusi orqali o'zbek xalqining o'ziga xos insonparvarlik, qanoatlilik va saxovatlilik qadriyatlarining mohiyatini o'quvchi ongiga singdirishda ularning mazmunini ohib beruvchi qator tushunchalarga ham to'xtaladi. O'quvchi dars jarayonida qanoat negizida – ozga ham, ko'pga ham, og'irlikka ham, xursandchilikka ham ko'nikish, sabr qilish, nafsni tiyish ekanligi; ochko'zlik – qanoatsizlik, sabrsizlik, natijasi sifatida insonparvarlik – kishilar o'rtaсидаги mehr-oqibat, muruvvat, saxiy qalblilik, imon, do'stlik, birodarlik, muruvvat me`yorini belgilovchi xislat; saxovat – himmatlilik belgisi; qanoat, saxovat, insonparvarlikning ahamiyati; yoshlar o'rtaсидаги sabrsizlik, ochko'zlik, razolat, jaholatning tub negizlari va ularni bartaraf etish yo'llari haqida ma'lumot oladi. Muqimiyl, Furqat, Zavqiy uchun ma'rifatparvarlik, A.Avloniy, Behbudiy, Hamza, A.Fitrat, A.Qodiriy, A.Cho'lponlar uchun milliy g'urur, o'zlikni anglash, haqiqatparvarlik, vatanparvarlik, H.Olimjon uchun hayotdan zavqlanish, Vatan ishqini bilan yashash asosiy intellektual meros sifatida namoyon bo'ladi.

O'qish darslaridan barcha bosqichlarida o'quvchilarning qiziqishi, qobiliyati, kayfiyati, fikri, bilim saviyasi va yosh xususiyatlariga mos ilmiy bilim va milliy-ma'naviy meros mezonlari o'qish darslari orqali singdiriladi. Ta'limning boshlang'ich va o'rta bosqichida eng oddiy kundalik milliy-ma'naviy meros: salomlashish, kattalarga hurmat, ovqatlanish odobi, tug'ilib o'sgan yerga muhabbat hissi, mehnatsevarlik tuyg'usi, Markaziy Osiyolik allomalar, fozillar, shoirlar, badiiy-estetik qadriyatlar (milliy o'yinlar, taqinchoqlar, taomlar va h.k.) haqida ma'lumot bilan chegaralaniadi. Boshlang'ich sinfda esa mantiqiy tahlil asosida ilm-fan, adabiyot, san`at, xalq amaliy san`ati o'zbek xalqining milliy g'ururini himoya qilgan va xalqni shunga da`vat etgan ulug' insonlar olg'a surgan asosiy g'oya ilmiy-tarixiy ma'lumotlar orqali o'quvchi ongiga singdiriladi. Bunday tahlil o'quvchini o'zbek milliy-ma'naviy merosi haqida chuqur bilim olishga, ish va so'z birligini



ta`minlashga, ajdodlar merosini mantiqiy izchillik asosida o'zlashtirishga va egallagan bilim, milliy-ma'naviy meros tushunchalari asosida millat, xalq, vatan, ajdodlar oldidagi burch, vijdon, g'urur hissining shakllanishiga samarali ta`sir etadi.

Turkistonda jadidchilik harakatining otasi M.Behbudiy o'zbek va tojik tillarida «Muntaxabi jug‘rofiyai umumiy», «Kitobat ul-atfol», «Muxtasari tarixi islom», «Madxali jug‘rofiyai umroniy», «Muxtasar jug‘rofiyai Rusiy» shuningdek, «Hisob» nomli darsliklar yaratgan. U o‘zi yaratgan darsliklarda didaktikaning eng muhim tamoyili bo‘lgan onglilikka alohida e’tibor qaratgan. M.Behbudiy «Kitobatul-atfol» (1908 y.) darsligida o‘quv matnlari bayonida fors, arab va turk tilidagi so‘zlarning aralashtirib berilishi «bola zehnini ochmay, balki fikrining yo‘q bo‘lishiga sabab» bo‘lishini aytib, matn tuzdirishning grammatik, stilistik, tarbiyaviy jihatlarini yoritgan, xatlardan namunalar keltirgan .

Abdulla Avloniy darsliklarida milliylikka tayanib, ijodiy izlanish, o‘qish va o‘qitishning yangi shakl, uslub va vositalarini qidirib topish o‘qituvchining eng muhim sifatlaridan biri deb hisoblaydi. Uning darsliklari o'zbek milliy didaktikasi tarixida muhim o‘rin egallaydi. U o‘z darsliklarida oddiydan murakkabga borish usuliga amal qiladi, o‘quv materiallarini oddiy tilda, yengil, qiziqarli bo‘lishiga e’tibor beradi, matn tanlashda bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga oladi. Abdulla Avloniy yaratgan darsliklarning ijobiy xususiyatlaridan yana biri shundaki, ularning aksariyatida xalq og‘zaki ijodi namunalari, maqol va topishmoqlar keltirilgan. Abdulla Avloniyning “Ikkinchi muallim” darsligida ham bu mavzudagi hikoyalar anchagina bor, ulardan biri ota nasihatiga amal qilib, boyib ketgan o’g’il haqidagi “Aqli bog’bon” hikoyasidir. Hikoya shunday: Bir bog’bonning uch o’g’li bor edi. Uchi ham dangasa va ishyoqmas edilar. Bog’bon bir kun kasal bo’ldi. O’g’illarini ishga solmak uchun yoniga 97 choqirub: «O’g’lonlarim, mani ajalim etgan o’xshaydur. Man sizlarga vasiyat qilub ketayin. Bog’ning ichiga bir ko’za oltun ko’mub qo’yg’onman. Mandan so’ngra o’zingiz kavlab, topub, bo’lashub olursiz» - dedi. Arodan bir necha kun o’tmay, bog’bon dunyodan o’tdi. O’g’illari oltun axtarub, bog’ni chunon qazidilarki, tufrog’lari kul bo’lib ketdi, lekin tokning ildizidan boshqa hech narsa topolmadilar. Ammo shul yil tok chunon uzum qildiki, aqchasi necha



ko'zaga to'ladurgon oltun bo'ldi. So'ngra bu yalqovlar bildilarki, oltin erda emas, ishlovda ekan. Hissa: «Hamma yamonliqlarning onosi – dangasalik, qo'rroqlik – otosidur».

Ma'rifatparvar shoir H.H.Niyoziy darslik yozish, dars jarayoni, o'quv ishlarini tashkil qilishda buyuk chex pedagogi Y.A.Komenskiyning pedagogik qarashlariga asoslangan. Masalan, sinf-dars tizimi, har bir darsning o'z mavzusi va vazifasi bo'lishi, dars jarayonida faollik va intizom bo'lishi zarurligini uqtiradi. U K.Ushinskiy, Komenskiy, Pestalotssi, F.Disterveglarning ko'rsatmali ta'lim metodikasini yangi usullar bilan boyitdi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Abdulla Avloniyning "Tarbiya biz uchun yo hayot-yo mamot, yo najot-yo halokat, yo saodat-yo falokat masalasidir" –degan fikrlari ayni haqiqat. Boshlang'ich sinf o'quvchilaridagi sabr qilish, nafsni tiyish ekanligi; ochko'zlik – qanoatsizlik, sabrsizlik, natijasi sifatida insonparvarlik – kishilar o'rtasidagi mehr-oqibat, muruvvat, saxiy qalblilik, imon, do'stlik, birodarlik, muruvvat me'yorini belgilovchi xislat; saxovat – himmatlilik kabi insoniylik tushunchalarini shakllanishida jadid ma'rifatfarvarlarinig buyuk merosi tuganmas buloq vazifasini o'taydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Cho'lpon, Asarlar, 1-2-jiddlar, Toshkent. 1994;
- 2.Avloni A., Tanlangan asarlar, 1-2-jiddlar, Toshkent, 1998;
- 3.O'zbekiston tarixi: yangi nigoh. Jadidlar harakatidan milliy mustaqillikka qadar, Toshkent, 1998;
- 4.Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash, Toshkent, 1999;
- 5.Behbudiy M., Tanlangan asarlar, Toshkent, 1999;
- 6.Fitrat, Tanlangan asarlar, 1-2-jiddlar, Toshkent, 2000;